

**BSF LI BOLALARGA ERTA YOSHDA KOMPLEKS YORDAM
KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI****Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna,**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti.
Logopediya kafedrasida professori pedagogika fanlari doktori (DSc)
e-mail: aripova.shahnoza@mail.ru*

Abdulfazilova Dilshoda Akmaljon qizi,

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti,
Logopediya yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqola bolalar serebral falaji, uning kelib chiqish sabablari va bolalar serebral falaji bilan kasallangan bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlari haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga BSF bolalarning ta'lim-tarbiyasi hamda ular bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ish jarayoni yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bolalar serebral falaji, markaziy nerv sistemasi, distoniya, simmetrik, assimetrik, falajlanish, nutq, korreksiya, texnologiya, dizartriya, alaliya.

Аннотация. Эта статья содержит информацию о детском церебральном параличе, его причинах и речевых нарушениях, встречающихся у детей с детским церебральным параличом. Также рассматривается процесс образования и коррекционно-логопедической работы с детьми с ДЦП.

Ключевые слова: детский церебральный паралич, центральная нервная система, дистония, симметричный, асимметричный, паралич, речь, коррекция, технология, дизартрия, алалия.

Annotation. This article provides information about childhood cerebral palsy, its causes, and speech disorders encountered in children affected by cerebral palsy. It also discusses the education and the process of corrective-logopedic work with children with CP.

Keywords: childhood cerebral palsy, central nervous system, dystonia, symmetrical, asymmetrical, paralysis, speech, correction, technology, dysarthria, alalia.

Kirish. Bolalar serebral falaji (BSF) - bosh miya harakatlantiruvchi zonalari va bosh miyadagi harakatni yo'naltiruvchi yo'llarni zararlanishi bilan kechadigan markaziy nerv sistemasi kasalligi hisoblanadi. Bolalar serebral falaji kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, surunkali kasalliklar, homilaning erta yoki kech tug'ilishi, infeksiyon kasalliklar, homladorlik vaqtida turli xil jarohatlanishlar, ona va homila qonining rezus faktor va guruhi bo'yicha to'g'ri kelmasligi, bundan tashqari genetik faktorlar ham asos bo'la oladi. Bolalar serebral falaji nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda nafaqat harakat qilishdagi qiyinchiliklar muammo tug'diradi, balki ularda to'g'ri harakat qilishi haqidagi tasavvurlarni yo'qligi ham shakllanmaganligi namoyon bo'ladi. Bolalar serebral falaji nuqsoniga ega bolalarda nutq buzilishi asosiy o'rinni egallaydi. BSF li bolalarning rivojlanishini prognozlash markaziy nerv tizimining zararlanish darajasi va bolaga ko'rsatilayotgan tibbiy-psixologo-pedagogik yordamga

bog‘liq hisoblanadi. [1] Ma‘lumki, BSF li bolalarga psixologo-pedagogik yordam ko‘rsatish jarayonini tashkil etish sohalararo yondashuvni talab etadi.

Sabablar guruhi	Misollar	Patogenez mexanizmi
Prenatal omillar	Infekzion kasalliklar, toksikoz, rezus konflikt	Homila miya rivojlanishining buzilishi
Perinatal omillar	Tug‘ruq jarohati, gipoksiya, asfiksiya	Markaziy nerv tizimi kislorod yetishmovchiligi
Postnatal omillar	Infeksiyalar, bosh miya travmalari	Neyronlar shikasti va funksional buzilish

Jadvaldan ko‘rinadiki, BSF etiologiyasi ko‘p omilli bo‘lib, eng katta xavf prenatal va perinatal davrda yuzaga keladi. Aynan shu davrlarda markaziy nerv tizimi shakllanishi jarayonida patologik o‘zgarishlar rivojlanadi. Bu esa keyinchalik motor va nutq buzilishlariga olib keladi.

Bir qator tibbiy adabiyotlarda BSF li bolalarni diagnostik jihatdan tekshirish va ularga kompleks reabilitatsion ta‘sir ko‘rsatish metodlari yoritib berilgan; reabilitatsion davolash tamoyillari shakllantirilgan; bunday bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordamni standartlashtirish masalalari ko‘tarilgan; reabilitatsion ishlarning yanada samarali vositalari ishlab chiqilgan; an‘anaviy metodlarni qo‘llashga qaratilgan chora-tadbirlar takomillashtirilgan. Bunday bolalarni reabilitatsion davolashning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: medikamentoz davolash, davolovchi jismoniy tarbiya, fizioterapiya, massaj, refleksoterapiya, ortopedik yordam, qo‘shimcha somatik patologiyalarni davolash.

Tadqiqotchilarning aksariyat qismi medikamentoz terapiya va davolovchi jismoniy tarbiya erta yoshda ayniqsa, yaxshi samara beradi deb hisoblashadi. Ushbu usullar BSF li bolalardagi harakat buzilishlarini korreksiyalashning eng asosiy metodlari sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Bolalar serebral falaji (BSF) muammosi va uni erta kompleks reabilitatsiya qilish masalalari mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda ushbu nuqsonning etiologiyasi, patogenezi hamda klinik-pedagogik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan.

K.A.Semenova, Ye.M.Mastyukova va M.V.Ippolitova o‘z tadqiqotlarida BSF li bolalarda markaziy nerv tizimi zararlanishi natijasida yuzaga keladigan harakat va nutq buzilishlarining o‘zaro bog‘liqligini asoslab berganlar [2, 45-b.]. Ularning ishlarida erta tashxis va kompleks reabilitatsiyaning samaradorligi alohida ta‘kidlanadi.

Ye.M. Mastyukova BSF li bolalarda nutq buzilishlarining klinik xususiyatlarini chuqur tahlil qilib, dizartriya va alaliya kabi nuqsonlarning shakllanish mexanizmlarini yoritgan hamda logopedik ishning bosqichli tizimini ishlab chiqqan [3, 78-b.]. Muallifning fikricha, nutq korreksiyasi harakat funksiyalarini tiklash bilan birgalikda olib borilishi lozim. K.A.Semenova o‘z ishlarida BSF li bolalarni reabilitatsiya qilishda tibbiy va fizioterapevtik usullarni uyg‘un qo‘llashning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. U mushak tonusini normallashtirish va patologik reflekslarni kamaytirish reabilitatsiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligini ta‘kidlaydi [2, 112-b.].

Berta va Karl Bobatlar tomonidan ishlab chiqilgan Bobat konsepsiyasi BSF li bolalarda motor rivojlanishni faollashtirishda eng samarali yondashuvlardan biri sifatida baholanadi. Ushbu metod patologik reflekslarni tormozlash va normal harakat stereotiplarini shakllantirishga qaratilgan [3, 56-b.].

V.Vojta tomonidan ishlab chiqilgan reflekslokomotsiya metodi esa erta yoshdagi bolalarda avtomatik motor reaksiyalarini faollashtirish orqali markaziy nerv tizimi faoliyatini rag‘batlantirishga asoslanadi. Bu metod og‘ir shakldagi BSFda ham qo‘llanilishi bilan ajralib turadi [2, 130-b.].

A.Peto tomonidan ishlab chiqilgan konduktiv pedagogika metodida esa psixomotor rivojlanish va ta‘lim jarayoni bir butun tizim sifatida tashkil etiladi. Ushbu yondashuv BSF li bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirishda samarali hisoblanadi [4, 92-b.].

M.Y.Ayupova logopedik yordamni tashkil etish, nutq nuqsonlarini erta aniqlash va korreksiyalash masalalarini o‘rganib, individual yondashuvning muhimligini asoslab bergan [1, 63-b.]. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, BSF li bolalarda erta kompleks yondashuv — tibbiy, psixologik va pedagogik yordamning uyg‘unligi — eng samarali reabilitatsion model hisoblanadi. Ayniqsa, erta boshlangan logopedik va korreksion ishlar bolaning rivojlanish prognozini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Metodologiya. Mazkur maqolada bolalar serebral falaji (BSF) bo‘lgan bolalarda erta yoshdan boshlab kompleks yordam ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda nazariy va tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik, tibbiy va logopedik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, tizimlashtirish hamda umumlashtirish metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, BSF li bolalar bilan ishlashda qo‘llaniladigan reabilitatsion va korreksion metodlar (Bobat terapiyasi, Vojta metodi, Felps yondashuvi va konduktiv pedagogika) mazmunan tahlil qilindi hamda ularning erta yoshdagi bolalarda nutq va harakat rivojlanishiga ta‘siri o‘rganildi. Tadqiqotda kompleks yondashuv tamoyili asos qilib olinib, tibbiy, psixologik va pedagogik yordamning o‘zaro integratsiyasi orqali erta aralashuv samaradorligini oshirish masalalari yoritildi.

Natijalar. Vintrop M.Felps, Berta va Karel Bobatlar, Jan Tardye serebral falajligi bo‘lgan bolalarning harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimiga asos solgan olimlardan sanaladi. V.Felps tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar nafaqat davolovchi jismoniy tarbiyada, balki, logopediya amaliyotida ham dizartriya bolalarning nutq nuqsonini bartaraf etishda hozirgacha qo‘llab kelinmoqda. Olim harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishda mushaklarni ixtiyoriy tarzda bo‘shashtira olish qobiliyatini shakllantirish alohida ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydi. V.Felps massajni cheklangan tarzda ehtiyotkorlik bilan qo‘llash kerakligini qayd etadi va uning fikricha, mushaklar faoliyatini bosh miya orqali nazorat qilish asosida mushaklar relaksatsiyasiga erishish nisbatan samaraliroq hisoblanadi. Mushaklar bo‘shashtirilgandan so‘ng passiv harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar; yordam asosida amalga oshiriladigan faol harakatlar; logopedning yordamisiz amalga oshiriladigan faol harakatlar; qarshilik asosidagi faol

harakatlar; shartli (ixtiyoriy) harakatlar; avtomatizatsiyalangan harakatlar; bolaning imkoniyatlarini yanada kengaytirishga imkon beruvchi kombinatsion harakatlar bajariladi.

O‘z-o‘zidan ma‘lumki, V.Felps tomonidan taklif etilgan metodika faqatgina qaratilgan nutqni yaxshi tushunadigan bolalar bilan ishlashda qo‘l keladi, shuning uchun ham ushbu metodikadan erta yoshdagi bolalar bolalar bilan ishlash mobaynida foydalanib bo‘lmaydi, chunki erta yoshdagi bolalarning rivojlanish potentsiali talabga javob beradigan darajagacha shakllanib ulgurmagan bo‘ladi.

K.Bobat sog‘lom boladagi motorika rivojlanishining evolyutsion qonuniyatlariga asoslangan davolovchi jismoniy tarbiya metodikasini taklif etishdi. U V.Felps taklif etgan metodikadan farqli ravishda BSF ning turli darajasidan aziyat chekuvchi, psixika va nutq sohasida og‘ir buzilishlari bo‘lgan erta yoshdagi bolalarga ham to‘g‘ri keladi. B va K.Bobatlar harakat ko‘nikmalarini shakllantirishdan avval patologik reflekslarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab berishgan. Buning uchun ular embrion holatini eslatuvchi va “refleksni ta‘qiqlovchi holatlar” deb ataluvchi maxsus tana holatlarini ishlab chiqishgan. Olimlar harakat ko‘nikmalarini bolaning yoshi va harakat patologiyasining og‘irlik darajasiga bog‘liq bo‘lmagan tarzda ketma-ket rivojlantirishga yordam beruvchi mashqlar tizimini yaratishdi. Dizatriya va anatriya kabi nutq nuqsonlarini korreksiyalashda ushbu metodikaning asosiy tamoyillaridan (patologik reflekslarni tormozlash, mushaklar tonusini me‘yorlashtirish, artikulyatsion mushaklarning harakat ko‘nikmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish, harakatni o‘zlashtirish maqsadida qat‘iy cheklangan yordam ko‘rsatish, topshiriqni bajarishning individual tempini belgilash, bola tomonidan hosil qilingan ko‘nikmalarni muntazam tarzda mustahkamlab borish va hokazolar) foydalaniladi. [2] K.Bobat tomonidan ishlab chiqilgan metodikaning asosiy tamoyillari keyinchalik V.Vojtaning motor rivojlantirish metodining asosini yaratishga xizmat qildi. Ushbu refleksolokomotsiya metodi kichik va erta yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan chora-tadbirlar mobaynida keng qo‘llaniladi. Uning maqsadi bolada tana holatini nazorat qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish, oyoq-qo‘llarning tayanch funksiyasini shakllantirish va harakatlar koordinatsiyasini rag‘batlantirishdan iborat. Ye.T.Lilyin va V.A.Doskinlarning ta‘kidlashicha, mashg‘ulotlarni V.Vojta metodi asosida tashkil etish BSF li bolalar uchun xos bo‘lgan turg‘un patologik reflekslarning mustahkamlanib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi va me‘yoriy harakat reflekslarining shakllanishi uchun asos yaratadi.

G.Tardiye bemor bolalarning mustaqilligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutuvchi ko‘nikma va malakalarni tarbiyalash uchun ishlab chiqilgan maxsus funksional tizimning muallifi hisoblanadi. G.Tardiye bo‘shashtirish usullarini qo‘llash, muvozanat reaksiyasini rivojlantirish, kontrakturalarning oldini olish hamda bartaraf etish (jarrohlik usuli orqali) bilan bir qatorda o‘yinchoqlar, shaxsiy gigiyena vositalari, oshxona va uy jihozlarining shaklini o‘zgartirish hamda bolalar uchun moslashtirishni taklif etdi va ulardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan mashqlarni funksional mashqlar deb nomladi.

Bundan tashqari S.A.Bortfeld va K.A.Semenovalar ham o'z tadqiqotlarida harakat ko'nikmalarini rivojlantirish tizimini ishlab chiqishga qaratilgan bir qancha amaliy ishlar olib borishgan. V.T.Kojevnikova kontraktura va deformatsiyalarning oldini olish, bosh, tana va oyoq-qo'llar uchun fiziologik jihatdan qulay bo'lgan pozitsiyalarni yaratish maqsadida turli ortopedik vositalardan (maxsus ortopedik oyoq kiyimlar, supinatorlar, tutorlar, ortopedik apparatlar, bandajlar va hokazo) foydalanishni asoslab berdi.

Quyidagi metodlar BSF li bemorlarni reabilitatsion jihatdan davolashda keng qo'llaniladi va o'zining samaradorligi bilan ajralib turadi: BSF li bolalardagi patologik harakat stereotipini dinamik propriotseptiv jihatdan korreksiyalash, umurtqa pog'onasi va oyoq-qo'l bo'g'imlarini biomexanik korreksiyalash metodikasi, ignali refleksoterapiya, apparatli fizioterapiya, iliq harorat bilan davolash, balchiq bilan davolash va balneoterapiya, vibromassaj, sun'iy lokal gipotermiya. "Sensor xona" va "Opti-musiqqa" vositasi asosidagi multisensor sharoitlarda polisensor korreksion ta'sir ko'rsatish metodidan foydalanish allaqachon o'z samaradorligini isbotlagan. V.T.Kojevnikovaning ta'kidlashicha, "Faoliyatga bo'lgan motivatsiya emotsional irodaviy sohaning muhim qismi hisoblanadi va polisensor korreksiya metodi orqali samarali tarzda korreksiyalanadi. Polisensor korreksiya metodi bolalar serebral falajligidan aziyat chekuvchi bemorlarning polimorf nishon sifatidagi afferent tizimiga kombinatsion ta'sir ko'rsatadi".

A.Peto tomonidan ishlab chiqilgan va asosida ortofunksionallik tamoyili yotuvchi konduktiv pedagogika metodi o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab ommalashib ketdi. Professor A.Petoning fikricha, BSF li bolalardagi motor buzilishlar nafaqat bosh miyadagi harakat tizimining zararlanishi, balki, miyaning turli bo'limlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va koordinatsiyaning buzilishi hisobiga ham kelib chiqadi. Nerv tizimining aynan shu xususiyatini maqsadga qaratilgan ta'lim jarayoni mobaynida yanada faollashtirish mumkin. [3] Hozirgi kunda konduktiv pedagogika zamonaviy reabilitatsion texnologiyalar va qo'shimcha imkoniyatlar bilan boyitilgan holda konduktiv terapiya metodiga aylangan. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirish, ularda shaxsiy rivojlanish va ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyani uyg'otish maqsadida psixomotor funksiyalarni bir paytning o'zida rag'batlantirish ushbu metodlarning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Bir qator tadqiqotchilar serebral falajligi bo'lgan bolalarning kognitiv va nutqiy buzilishlarini bartaraf etishda ularga maxsus ta'lim-tarbiya berish muhim ahamiyatga ega degan fikrni bir ovozdan yoqlashadi. Serebral falajlikdan aziyat chekuvchi bolada og'ir intellekt buzilishlari bo'lmagan taqdirdagina davolash va ta'lim-tarbiya berish jarayoni yaxshi samara berishi mumkin.

BSF da olib boriladigan tibbiy-kompensator ishlardan kutilgan natija olish uchun bolada sog'ayib ketishga bo'lgan ongli istak hamda intellekt to'liq saqlanib qolgan bo'lishi kerak. O'z-o'zidan ma'lumki, BSF li bolalardagi alohida psixik funksiyalar rivojlanishining buzilishi boshqa funksiyalar rivojlanishining ikkilamchi tarzda

kechikishiga olib kelganligi sababli tibbiy-korreksion ishlarni bola hayotining dastlabki oylaridanoq boshlash maqsadga muvofiq sanaladi. [4]

K.A.Semenova, Ye.F.Arhipova, L.A.Danilova, Ye.M.Mastyukova, P.Ya.Fishshenkolar rivojlanish buzilishlariga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan pedagogik va logopedik chora-tadbirlar mobaynida diagnostika va korreksiya ishlarini erta tashkil etishning muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlashadi.

Ye.F.Arhipova nutqqacha bo'lgan davrda tashkil etiladigan korreksion-pedagogik ishlarning bosqichli tizimini taklif etdi. Ushbu tizimli chora-tadbirlar boladagi barcha buzilgan funksiyalarni, shu jumladan, gugulash va chug'urlashni rag'batlantirish hamda artikulyatsion apparat motorikasi, sensor funksiyalar va ko'ruv-motor koordinatsiyasini qayta shakllantirishga qaratilgan. Ye.M.Mastyukova go'daklik yoshi, erta yosh va maktabgacha yoshdagi BSF dan aziyat chekuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning tamoyillari, yo'nalishlari va tarkibini ishlab chiqdi.

R.Ya.Abramovich-Lextman kichik maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar tizimida predmetli faoliyatdan foydalanishni tavsiya etadi. Bunda predmetni tutib olish va ko'ruv nazorati ostida turli sodda harakatlarni amalga oshirishdan tortib, syujetli o'yinlarda ishtirok etish, rasm chizish, applikatsiyalar yasash va konstruksiyalash kabi faoliyat turlarini bajarish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

K.A.Semenova, O.V.Stepanchenkolar tayanch-harakat apparati patologiyasidan aziyat chekuvchi dizartriya bolalarning mushaklar spazmi, giperkinezlari, gipersalivatsiya va sinkineziyalarini kamaytirish maqsadida sun'iy lokal gipotermiya usulidan foydalanishni tavsiya etishgan. Artikulyatsion motorikani rivojlantirishga qaratilgan logopedik ishlarni qo'l funksiyasidagi buzilishlarni korreksiyalash hamda uning to'laqonli faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan birgalikda olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Psevdobulbar falajlikni bartaraf etishga qaratilgan medikamentoz chora-tadbirlarni maqsadga qaratilgan individual logopedik ish bilan birgalikda olib borish yaxshi samara berishini isbotlashgan. Oyoq-qo'llarning distal qismiga impulsli tok orqali ta'sir etish nutq hamda intellekt buzilishlarini sezilarli darajada kompensatsiyalash imkonini berishi haqida izoh bildirishgan. L.A.Danilova va Ye.M.Mastyukovalar dizartriyaning turli shakllarida qayd etiladigan nutq buzilishlarini korreksiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishadi va logopedik ishning samaradorligi dizartriyaning shaklini to'g'ri aniqlash hamda logopedik ta'sirning differensial metodlaridan qay tarzda to'g'ri foydalanishga bog'liq ekanligini ta'kidlashadi.

Ye.F.Arhipova Ye.M.Mastyukova, M.V.Ippolitova, K.A.Semenova, N.M.Maxmudova, K. va B.Bobatlar logopedik mashg'ulotlarni amalga oshirish mobaynida patologik tonik reflekslarni tormozlash orqali mushaklar tonusini me'yorlashtirish maqsadida "refleksni ta'qiqlovchi holatlardan" foydalanishni taklif etishadi: bunda artikulyatsion apparat mushaklarini bo'shashtirish har bir bola uchun individual bo'lgan tana holatini tanlashdan boshlanadi. Bola ushbu tana holatida

yotqizilganda patologik tonik reflekslar namoyon bo'lmaydi yoki minimal tarzda namoyon bo'ladi. Differensial logopedik massaj hamda differensiallangan passiv va faol artikulyatsion mashqlar usuli ishlab chiqildi. O.V.Pravdina, M.V.Ippolitova, I.I.Panchenkolar BSF dan aziyat chekuvchi dizartriya bolalarda umumiy motorika, artikulyatsion motorika va nutqiy nafasni rivojlantirish, so'lak oqishini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni olib borishni tavsiya etishadi. BSF dan aziyat chekuvchi dizartriya bolalar nutqini korreksiyalashda nafas hamda ovoz mashqlari muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Bolalar serebral falaji bo'lgan bolalarda rivojlanish jarayoni murakkab va ko'p omilli xarakterga ega bo'lib, u nafaqat harakat faoliyatidagi buzilishlar, balki nutq, psixik va ijtimoiy sohalardagi cheklanishlar bilan ham namoyon bo'ladi. Ushbu holat bolaga ko'rsatiladigan yordamni erta yoshdan boshlab tizimli va kompleks tarzda tashkil etishni talab etadi. Erta yosh davrida markaziy nerv tizimining yuqori plastiklik xususiyati mavjud bo'lib, bu davrda amalga oshiriladigan tibbiy, psixologik va pedagogik ta'sirlar bolalarning funksional imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, harakat va nutq rivojlanishini birgalikda qo'llab-quvvatlash, patologik reflekslarni kamaytirish, mushak tonusini me'yorlashtirish hamda sensor-motor tajribani boyitish bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Logopedik ishlar artikulyatsion motorikani rivojlantirish, nutqiy nafasni shakllantirish va kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlash orqali olib borilganda samaraliroq bo'ladi. Shu bilan birga, har bir bolaga individual yondashuvni tanlash, uning imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kompleks yondashuv asosida tashkil etilgan korreksion-reabilitatsion jarayon bolalarning nafaqat jismoniy va nutqiy rivojlanishini, balki ularning ijtimoiy moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorgarligini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2011. – 256 b.
2. Семенова К.А., Мастюкова Е.М., Смуглин М.Я. Клиника и реабилитационная терапия детских церебральных параличей. – М.: Медицина, 1972. – 328 с.
3. Мастюкова Е.М., Ипполитова М.В. Нарушение речи у детей с церебральным параличом: Книга для логопеда. – М.: Просвещение, 1985. – 192 с.
4. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2013. – 288 b.
5. Правдина О.В. Логопедия. – М.: Просвещение, 1973. – 272 с.
6. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz> (murojaat qilingan sana: 20.04.2026).
7. UNICEF rasmiy sayti. – URL: <https://www.unicef.org> (murojaat qilingan sana: 20.04.2026).